

KATTA AVLOD TAJRIBASIDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING FUNKSIONAL MODELI

Niyozova Nilufarxon Abdulxamidovna

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada katta avlodning hayotiy tajribasidan foydalanib o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning funksional modeli tadqiq etilgan. Model axborotlashgan jamiyatda o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasini, mustaqil faoliyatini tashkil etishda katta avlodning pedagogik va ijtimoiy rolini oshirishga qaratilgan. Tadqiqotda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari, xalq amaliy san’ati muzeylariga tashriflar, ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyat, mavsumiy xalq bayramlaridan foydalanish mexanizmlari va gerontopedagogika yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarda tarbiyaviy, ta’limiy, gnostik va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishda katta avlod tajribasining roli, metodologik yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Katta avlod, ta’lim-tarbiya, funksional model, tarbiya, madaniy meros, ijtimoiy faollik.

Kirish.

Katta avlodning tajribasi yosh avlodni tarbiyalash va ularni ijtimoiy faollikka yo‘naltirishda muhim resurs hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi qarorida “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” tamoyili orqali katta avlod tajribasidan foydalanish, yoshlarni milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, nuroniyarning ijtimoiy faolligini oshirish vazifalari belgilangan[1].

Pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning intellektual, ma’naviy, jismoniy hamda ijtimoiy rivojlanishida katta avlod vakillarining hayotiy tajribasi, metodik yondashuvi va ijtimoiy faolligi alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, ko‘p yillik pedagogik tajribaga ega bo‘lgan, hayot sinovlaridan o‘tgan katta yoshdagi insonlar yosh avlod uchun nafaqat bilim manbai, balki tarbiyaviy namuna sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois, o‘quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu hamkorlik tizimli va uzviy yo‘lga qo‘yilgandagina tarbiya jarayonida kutilgan natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot obyekti sifatida katta avlod tajribasidan foydalanib, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayoni tanlab olindi. Chunki aynan ushbu

jarayon orqali yoshlarning hayotiy qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi. Tadqiqot subyektlari esa 60 yosh va undan yuqori bo'lgan tajribali o'qituvchilar hamda o'quvchilardan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro muloqot, bilim va tajriba almashinuvi asosiy e'tibor markazida bo'ldi.

Tadqiqot davomida bir qator ilmiy-amaliy usullardan foydalanildi. Jumladan, kuzatuv, intervyu, davra suhbatlari hamda "uch avlod uchrashuvlari" orqali katta avlod vakillari bilan yoshlar o'rtasida jonli muloqot tashkil etildi. Bu jarayon o'quvchilarda hurmat, ehtirom, sabr-toqat kabi fazilatlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar muhim vosita sifatida qo'llanildi. Xususan, xalq amaliy san'ati muzeylariga tashriflar, milliy bayramlar va marosimlarda ishtirok etish orqali o'quvchilar milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar.

Ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ham tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Oilaviy klublar tashkil etish, pedagogik maslahatlar o'tkazish orqali ota-onalar, o'qituvchilar va katta avlod vakillari o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatildi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasida yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, mavsumiy xalq bayramlarini tashkil etish va milliy urf-odatlarni targ'ib qilish orqali yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat ruhini shakllantirishga erishildi.

Tadqiqotda o'quvchilarning gnostik (bilish faoliyati bilan bog'liq) va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini baholash hamda rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etish qobiliyati va jamiyatda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Katta avlod vakillari bilan olib borilgan muloqot va amaliy faoliyatlar aynan shu jihatlarining rivojlanishida samarali omil bo'lib xizmat qildi.

Eng muhimi, tarbiya jarayonida uzluksizlik tamoyilini ta'minlash zarurligi alohida ta'kidlandi. Ya'ni, oila, maktab va mahalla o'rtasidagi hamkorlik uzluksiz va tizimli bo'lishi, tarbiyaviy ishlar bir-birini to'ldirishi lozim. Faqatgina shunday yondashuv orqali o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishi ta'minlanadi [3].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim jarayonining mazmuni va shakllari tubdan yangilanib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bunday sharoitda katta avlodning boy hayotiy tajribasidan foydalanish ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mazmunli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Mazkur model o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini, balki ularning mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yishda ham

katta avlod vakillarining maslahatlari, hayotiy misollari va tajribalariga tayanishni nazarda tutadi. Natijada yoshlar real hayotiy vaziyatlarga tayyorlanadi, ularda ijtimoiy moslashuvchanlik va mas'uliyat hissi shakllanadi.

Ushbu jarayonda pedagogning kasbiy kompetensiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, pedagogning motivatsion kompetensiyasi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish va ichki rag'batni shakllantirishga xizmat qilsa, gnostik kompetensiya ularning bilim darajasi va individual xususiyatlarini chuqur o'rganishni ta'minlaydi. Metodologik va metodik kompetensiyalar ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda samarali usul va vositalarni tanlash imkonini beradi. Informatsion kompetensiya esa zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya o'quvchilar, ota-onalar va katta avlod vakillari bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishga yordam beradi. Refleksiv kompetensiya pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishiga xizmat qilsa, prognostik kompetensiya kelgusidagi natijalarni oldindan ko'ra bilish imkonini beradi. Konstruktiv, tadqiqot, texnologik va korreksion kompetensiyalar esa ta'lim jarayonini loyihalash, yangiliklar joriy etish hamda kamchiliklarni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi.

Darsdan tashqari tadbirlar mazkur modelning ajralmas qismi bo'lib, ular orqali o'quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi va ijtimoiy tajribasi boyitiladi. Jumladan, "uch avlod uchrashuvlari" yoshlar, ota-onalar va bobo-buvilar o'rtasida muloqotni kuchaytirib, avlodlar uzviyligini ta'minlaydi. Davra suhbatlari esa turli mavzularda fikr almashish, bahs-munozara madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalq amaliy san'ati muzeylariga tashriflar orqali o'quvchilar milliy meros, an'analar va qadriyatlar bilan yaqindan tanishadi. Shuningdek, Navro'z, Hosil bayrami, Qovun sayli kabi mavsumiy va ixtiyoriy bayramlarni o'tkazish o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, jamoaviylik va madaniy merosga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi [5].

Ota-onalar bilan hamkorlik ham ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bayram va tadbirlarga ota-onalarni faol jalb etish orqali maktab va oila o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi. Oilaviy klublar tashkil etish esa ota-onalar, pedagoglar va katta avlod vakillarining hamkorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu klublarda tarbiya, ta'lim va yoshlar rivojiga oid dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, konsultatsiyalar va pedagogik maslahatlar orqali ota-onalarga farzand tarbiyasida zarur bo'lgan metodik yordam ko'rsatiladi. Natijada o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi yagona tarbiyaviy muhit shakllanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun, avvalo, u davlat ta'lim standartlari hamda axloq-odob me'yorlariga mos ravishda yo'lga

qo'yilishi zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarda nafaqat bilim, balki to'g'ri xulq-atvor, jamiyatda o'z o'rnini anglash kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyat talablaridan kelib chiqib, o'quvchilarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mas'uliyatlilik, mehnatsevarlik, irodalilik, innovatsion fikrlash hamda huquqiy madaniyatni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor shaxsni tarbiyalashga erishiladi. Bu jarayonda katta avlodning hayotiy tajribasidan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo'lib, u tarbiyaviy, gnostik, metodologik va ijtimoiy jihatlarida o'quvchilarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Darsdan tashqari faoliyat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kengaytirishda, ularni real hayot bilan bog'lashda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan, xalq amaliy san'ati muzeylariga tashriflar orqali o'quvchilar milliy san'at, hunarmandchilik va folklor namunalarini bevosita ko'rish va his etish imkoniga ega bo'ladilar. "Hunarmandlar uylarida" tashkil etiladigan bayramlar va madaniy tadbirlar esa o'quvchilarda an'anaviy kasb-hunar turlariga qiziqishni oshiradi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar, bayram va marosimlarni o'rganish orqali yoshlar o'z milliy ildizlarini chuqurroq anglay boshlaydilar. "Uch avlod uchrashuvlari" esa o'quvchilarning tarbiyaviy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali platforma bo'lib xizmat qiladi, bunda katta avlod tajribasi yoshlar ongiga bevosita yetkaziladi.

Ta'lim-tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liq. Shu sababli bayram va turli tadbirlarga ota-onalarni faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali ota-onalar farzandlarining ijtimoiy hayotidagi ishtirokini ko'rib, ularning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadilar. Oilaviy klublar tashkil etish esa an'anaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilaviy muhitni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, pedagogik maslahatlar orqali ota-onalarga farzand tarbiyasi, ta'lim jarayonida ishtirok etishning samarali usullari tushuntiriladi va ular o'quv jarayonining faol subyektiga aylantiriladi.

O'quvchilarda tarbiyaviy va gnostik qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu borada ularga falsafiy, metodologik va fundamental ilmiy g'oyalarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratish zarur. Shu bilan birga, milliy an'ana, urf-odat va madaniy qadriyatlarni chuqur o'rganish orqali o'quvchilarning ma'naviy dunyosi boyitiladi. Ijtimoiy tajriba va shaxsiy tajribani integratsiyalash esa ularning hayotga bo'lgan qarashlarini kengaytiradi, madaniy darajasini oshiradi. Natijada o'quvchilar nafaqat bilimli, balki keng dunyoqarashga ega, ijtimoiy jihatdan faol va ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Katta avlod tajribasidan samarali foydalanish o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hayotiy tajriba, amaliy bilim va sinovlardan o'tgan qarashlar yosh avlodning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni turli hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Shu jihatdan, tarbiya va ta'lim jarayonlarini bir-biridan ajratib bo'lmaydi, chunki ular o'zaro uzviy bog'liq holda amalga oshirilgandagina yuqori natija beradi. Ya'ni, bilim berish bilan bir qatorda, o'quvchilarda to'g'ri xulq-atvor, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday uyg'un va uzluksiz jarayon natijasida yoshlar nafaqat bilimdon, balki ijtimoiy faol, ma'naviy barkamol hamda zamonaviy kasb-hunar egasi sifatida shakllanadi.

Mazkur model o'quvchilarda tarbiyaviy, gnostik, metodologik, ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Unda har bir bosqich o'zaro bog'liq holda tashkil etilib, o'quvchilarning bilim olishdan tortib, uni amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Ayniqsa, katta avlodning pedagogik tajribasi, madaniy merosi va hayotiy qarashlaridan foydalanish bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Bu orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarini chuqur anglaydi.

Shu bilan birga, katta avlod tajribasidan foydalanish milliy madaniy merosni saqlash va uni kelgusi avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayon orqali yoshlar o'z tarixiga, madaniyatiga va an'alariga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Natijada jamiyatda ma'naviy uzviylik, avlodlar davomiyligi va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, katta avlod tajribasidan foydalanib ta'lim-tarbiya berishning funksional modeli pedagogik jarayonni tizimli, izchil va samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu model orqali ta'lim jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish, ularni real ijtimoiy muhitga tayyorlashga xizmat qiladi.

Modelning muhim jihatlaridan biri shundaki, u dars va darsdan tashqari faoliyatni o'zaro uyg'unlashtiradi. Xususan, uch avlod uchrashuvlari, muzeylarga tashriflar, milliy bayram va marosimlar, shuningdek ota-onalar bilan hamkorlik kabi tadbirlar o'quvchilarning bilimini boyitish bilan birga, ularning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi hamda gerontopedagogika asosida olib borilgan faoliyat milliy an'ana va qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni kelgusi

avlodga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa jamiyatda avlodlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlab, ma'naviy merosning davomiyligini kafolatlaydi.

Natijada, o'quvchilarda ijtimoiy faollik, tarbiyaviy yetuklik va gnostik qobiliyatlar rivojlanishida katta avlodning roli ustuvor ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topadi. Shu bois, ularning tajribasidan samarali foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-mart qarori "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. Pedagogik shart-sharoitlar va faoliyat jarayonlari – Toshkent, 2020.
4. Modellashirish nazariyasi va pedagogik tizimlar – Toshkent, 2019.
5. Katta avlod va yoshlar pedagogik aloqalari – Samarqand, 2018.